

HY-9649 Toshkent – Qozon reysi haqida rasmiy ma’lumot

2023 9 Yanvar

2023-yilning 7-yanvar kuni HY9649/9650 Toshkent – Qozon – Toshkent yo‘nalishida parvoz qilayotgan Airbus A320 havo kemasining bitta dvigateli ishdan chiqqan. Havo kemasi muvoffaqiyatli tarzda nosoz dvigatel bilan Qozon aeroportiga qo‘ngan. Bort sahnida 173ta yo‘lovchi (158ta katta, 13ta o‘smir va 2ta chaqaloq) bo‘lgan va qo‘nish jarayonida ularning hech biri zarar ko‘rmagan. Yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish uchun Boeing767 havo kemasida HY8649/8650 qo‘shimcha reys tashkil etilgan. Hozirda havo kemasining dvigatelini ishdan chiqish sabablari o‘rganilmoqda. Qozon-Toshkent qaytish reysida esa 166 nafar yo‘lovchi manzilga yetkazilgan.

“Uzbekistan Airways” AJ axborot xizmati yo‘lovchilar xavfsizligi birinchi o‘rinda ekanligini eslatib o‘tadi. Yo‘lovchilar va kutib oluvchilarga yetkazilgan noqulayliklar uchun uzr so‘raymiz.